4-SHO‘BA. YOSHLAR SIYOSATIDA GENDER TENGLIK: MUAMMOLAR, TAJRIBALAR VA ISTIQBOLLI YECHIMLAR.

MAHALLA VA OLIY TA’LIM MUASSASALARI HAMKORLIGIDA YOSHLARNING GENDER TENGLIGI VA IJTIMOIY FAOLLIGINI TA’MINLASHNING PEDAGOGIK MEXANIZMLARI

Nabijon Temirov Soliyevich Farg‘ona davlat universiteti
Pedagogika kafedrasi professori, Pedagogika fanlar doktori
Sirojiddinova Xurshidaxon Rustambek qizi
Pedagogika nazariyasi va tarixi 2-kurs magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada mahalla va oliy ta’lim muassasalari hamkorligida yoshlar o‘rtasida gender tengligi va ijtimoiy faollikni ta’minlash masalalari yoritilgan. Yoshlarning gender huquqiy savodxonligini oshirish, ijtimoiy tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash hamda fuqarolik faolligini rivojlantirishda mahalla-OTM hamkorligining ahamiyati tahlil qilingan.
Kalit so’zlar: gender tenglik, yoshlar, ijtimoiy faollik, mahalla, oliy ta’lim muassasasi, mahalla-OTM hamkorligi, gender madaniyati, teng huquq va imkoniyatlar, yoshlar siyosati, fuqarolik faolligi, ijtimoiy tashabbus, gender ta’limi, liderlik, ijtimoiy-pedagogik hamkorlik.

Kirish

Mahalla yoshlarning real ijtimoiy muhiti va jamoatchilik instituti sifatida, OTM esa bilim, tarbiya va innovatsion faoliyat markazi sifatida hamkorlik qilsa, yoshlarning gender madaniyati, huquqiy savodxonligi, tashabbuskorligi va jamiyat hayotidagi ishtirokini rivojlantirish mumkin. Bugungi kunda gender tenglik jamiyatning barqaror rivojlanishi, inson huquqlarini ta’minlash hamda yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. O‘zbekistonda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minlash bo‘yicha izchil huquqiy va institutsional mexanizmlar shakllantirilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentabrdagi O‘RQ-

562-son “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni gender tenglikning asosiy huquqiy poydevorini belgilab berdi. Qonunning 4-moddasida gender siyosatining asosiy yo‘nalishlari, 6-moddasida davlatning gender tenglikni ta’minlash sohasidagi vakolatlari, 7-moddasida gender tenglikni ta’minlash bo‘yicha davlat siyosatining asosiy prinsiplari, 26-moddasida esa ta’lim, ilm-fan va madaniyat sohalarida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari belgilangan [1][8]. Gender tenglikni ta’minlashning strategik yo‘nalishlari Oliy Majlis Senatining 2021-yil 28-maydagi SQ-297-IV-son qarori bilan tasdiqlangan “2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi”da ham belgilangan. Mazkur strategiya ta’lim, ilm-fan, iqtisodiyot, davlat boshqaruvi va jamiyat hayotining boshqa sohalarida xotin-qizlar hamda erkaklar uchun teng imkoniyatlarni kengaytirishga qaratilgan [2][9]. Mazkur yo‘nalish 2026-yil 26-maydagi Oliy Majlis Senati Kengashining KQ-346/1-V-son qarori bilan yanada aniq maqsadli ko‘rsatkichlar asosida rivojlantirildi. Qarorda 2030-yilgacha gender tenglikka erishish strategiyasining yangilangan maqsadli ko‘rsatkichlari tasdiqlangan bo‘lib, 2026-yil uchun oliy ta’lim sohasidagi o‘qituvchilar orasida xotin-qizlar ulushini 43 foizga, boshqaruv lavozimlaridagi xotin-qizlar ulushini 30,2 foizga yetkazish maqsadi belgilangan. Shuningdek, siyosiy partiyalarda xotin-qizlar ulushi 49 foiz, ularning rahbarlik lavozimlaridagi ulushi 40 foiz etib belgilangan [3][10]. 2026-yilgi maqsadli ko‘rsatkichlarda xotin-qizlarning ilmiy va innovatsion faoliyatdagi ishtirokini kengaytirishga ham alohida e’tibor qaratilgan. Jumladan, ilmiy loyihalardagi xotin-qizlar ishtirokini 22 foizga, xotin-qizlar rahbarligidagi moliyalashtirilgan ilmiy loyihalar ulushini 25 foizga, kiberxavfsizlik va sun’iy intellekt sohasida tahsil olayotgan xotin-qizlar ulushini 35 foizga yetkazish ko‘zda tutilgan [3]. Yoshlarning ijtimoiy faolligini ta’minlashda mahalla va oliy ta’lim muassasalari hamkorligi

[8] O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentabrdagi O‘RQ-562-son Qonuni. Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida.

[9] O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2021-yil 28-maydagi SQ-297-IV-son qarori. 2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi.

[10] O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2026-yil 26-maydagi KQ-346/1-V-son qarori. 2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasining maqsadli ko‘rsatkichlarini tasdiqlash to‘g‘risida.

ham muhim ahamiyatga ega. O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentabrdagi O‘RQ-406-son “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonunining 18-moddasida fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining yoshlar siyosatini amalga oshirishdagi ishtiroki belgilangan. Unga ko‘ra, mahalla organlari yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularning jamiyat hayotidagi roli va faolligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshiradi, yoshlarni tarbiyalash masalalarida ta’lim muassasalari bilan hamkorlik qiladi, shuningdek, yoshlar siyosatini amalga oshirishda boshqa tashkilotlar va fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlik qiladi [4][11]. Shu jihatdan mahalla va oliy ta’lim muassasalarining hamkorligi yoshlarning gender tenglik haqidagi huquqiy va ijtimoiy bilimlarini oshirish, gender stereotiplarini kamaytirish, teng imkoniyatlar madaniyatini shakllantirish hamda yoshlarni jamoatchilik faoliyatiga jalb etishning muhim ijtimoiy-pedagogik mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, 2026-yil uchun belgilangan gender ko‘rsatkichlari OTM, mahalla va yoshlar tashkilotlari hamkorligida gender tenglikni targ‘ib qiluvchi ta’limiy, ilmiy va ijtimoiy loyihalarni amalga oshirish zarurligini ko‘rsatadi.

Shundan kelib chiqib, mahalla va OTMlar hamkorligida yoshlarning gender tengligi va ijtimoiy faolligini ta’minlash masalasini o‘rganish zamonaviy ta’lim, yoshlar siyosati va gender tenglik siyosatining o‘zaro bog‘liqligini ochib beruvchi dolzarb ilmiy yo‘nalishlardan biridir.

Asosiy qism.

Mahalla va oliy ta’lim muassasalari hamkorligida yoshlarning gender tengligi va ijtimoiy faolligini ta’minlash o‘zaro bog‘liq ijtimoiy-pedagogik jarayon sifatida namoyon bo‘ladi. Bunda mahalla yoshlarning bevosita ijtimoiy muhiti va jamoatchilik instituti sifatida, oliy ta’lim muassasasi esa ularning bilim, kompetensiya va fuqarolik faolligini rivojlantiruvchi ta’limiy muhit sifatida ishtirok etadi. O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonunining 18-moddasida fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularning jamiyat hayotidagi roli va faolligini oshirish hamda yoshlarni tarbiyalash masalalarida

[11] O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentabrdagi O‘RQ-406-son Qonuni. Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida.

ta’lim muassasalari bilan hamkorlik qilish vazifalari yuklatilgan [5][12]. Gender tenglikni ta’minlashda oliy ta’lim muassasalarining imkoniyatlari O‘zbekiston Respublikasining O‘RQ-562-son Qonunida huquqiy jihatdan mustahkamlangan. Mazkur Qonunning 26-moddasida ta’lim, ilm-fan va madaniyat sohalarida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlangan. Bu norma OTMlarda talaba-yoshlarning ta’lim olish, ilmiy faoliyat bilan shug‘ullanish va o‘z intellektual salohiyatini namoyon etishida gender asosidagi to‘siqlarni kamaytirish uchun huquqiy asos bo‘lib xizmat qiladi [5]. Mazkur jarayonda gender tenglikni faqat nazariy tushuncha sifatida emas, balki yoshlarning kundalik ijtimoiy faoliyatida namoyon bo‘ladigan kompetensiya sifatida shakllantirish muhimdir. Buning uchun OTMlarda gender huquqlari va teng imkoniyatlar bo‘yicha davra suhbatlari, treninglar, munozaralar, talabalar ilmiy loyihalari va ijtimoiy tashabbuslarni tashkil etish mumkin. Mahalla bilan hamkorlikda esa ushbu bilimlarni real ijtimoiy muammolarni aniqlash va hal etishga yo‘naltirish imkoniyati paydo bo‘ladi. Natijada talaba-yoshlar nafaqat gender tenglik haqida bilim oladi, balki jamoatchilik bilan muloqot qilish, muammolarni tahlil qilish va ijtimoiy tashabbuslarni amalga oshirish ko‘nikmalarini ham egallaydi. 2026-yilgi huquqiy yangiliklar ushbu hamkorlikning dolzarbligini yanada oshirmoqda. Oliy Majlis Senati Kengashining 2026-yil 26-maydagi KQ-346/1-V-son qarori bilan 2030-yilgacha gender tenglikka erishish strategiyasining maqsadli ko‘rsatkichlari yangilandi. Unda 2026-yil uchun siyosiy partiyalarda xotin-qizlar ulushini 49 foiz, ularning rahbarlik lavozimlaridagi ulushini 40 foizga yetkazish, shuningdek, oliy ta’lim o‘qituvchilari orasida xotin-qizlar ulushini 43 foizga yetkazish maqsadlari belgilangan [3].

Mazkur ko‘rsatkichlar yoshlarni, ayniqsa talaba-yoshlarni boshqaruv, ilm-fan, innovatsiya va jamoatchilik faoliyatiga jalb etish zarurligini ko‘rsatadi. Qarorda xotin-qizlarning ilmiy loyihalardagi ishtirokini 2026-yilda 22 foizga, xotin-qizlar rahbarligidagi moliyalashtirilgan ilmiy loyihalar ulushini 25 foizga, kiberxavfsizlik va sun’iy intellekt yo‘nalishida tahsil

[12] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-116-son Farmoni, 24.06.2026. Mahalla boshqaruvini samarali tashkil etishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida.

olayotgan xotin-qizlar ulushini 35 foizga yetkazish ko‘zda tutilgan [6][13]. Bu ko‘rsatkichlar OTMlarning yosh ayollar va qizlarning ilmiy-innovatsion hamda raqamli faoliyatini qo‘llab-quvvatlashdagi rolini kuchaytirishni taqozo etadi. Mahalla darajasidagi hamkorlik mexanizmlari ham 2026-yilda yangi mazmun bilan boyitildi. Prezidentning 2026-yil 24-iyundagi PF-116-son “Mahalla boshqaruvini samarali tashkil etishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmonida mahalla institutining jamiyatdagi rolini kuchaytirish, “mahalla yettiligi” faoliyatini samarali tashkil etish hamda mahalla bilan davlat organlari va jamoat tashkilotlarining uzviy hamkorligini ta’minlash maqsadlari belgilangan [5]. Farmonda yoshlarning bandligiga ko‘maklashish, “Yoshlar daftari”ga kiritilgan yoshlarga ijtimoiy yordam ko‘rsatish, aholining huquqiy ongi va ma’naviyatini oshirish kabi vazifalar ham mahalla faoliyati bilan bog‘langan [5]. Shu asosda mahalla-OTM hamkorligining amaliy modelini “aniqlash - o‘qitish - loyihalash - amalga oshirish -baholash” bosqichlari asosida tashkil etish mumkin. Birinchi bosqichda mahalladagi yoshlarning gender tenglik, huquqiy savodxonlik va ijtimoiy faollik darajasi aniqlanadi. Ikkinchi bosqichda OTM professor-o‘qituvchilari va mutaxassislari ishtirokida gender tenglik, inson huquqlari, liderlik va fuqarolik mas’uliyatiga oid treninglar tashkil etiladi. Uchinchi bosqichda talabalar mahalla yoshlarining real muammolari asosida ijtimoiy loyihalar ishlab chiqadi. To‘rtinchi bosqichda loyihalar mahalla, yoshlar yetakchisi va OTM hamkorligida amalga oshiriladi. Yakuniy bosqichda esa loyihalarning yoshlarning ijtimoiy faolligi va gender tenglikka oid qarashlariga ta’siri baholanadi. Bunday yondashuv xalqaro amaliyotda ham qo‘llab-quvvatlanmoqda. UNFPA tomonidan 2026-yil fevral oyida mahalla tizimida inson huquqlari va gender yondashuvlarini rivojlantirishga bag‘ishlangan 102 betlik amaliy qo‘llanma e’lon qilingan. Unda mahalla darajasida gender tenglikni amaliy mexanizmlar orqali ilgari surish masalalariga e’tibor qaratilgan [6]. Shuningdek, 2026-yil avgustida UNFPA tomonidan fuqarolik jamiyati tashkilotlari va O‘zbekiston mahallalari uyushmasi vakillari ishtirokida erkaklar va o‘g‘il bolalarni gender tenglikni ilgari surish hamda genderga asoslangan zo‘ravonlikning oldini olishga jalb etish bo‘yicha trening o‘tkazilgan

[13] UNFPA Uzbekistan. Towards Gender Equality and a Prosperous Society: Practical Approaches at the Mahalla, 2026.

[7][14]. Yoshlarning ijtimoiy faolligini rivojlantirishda Farg‘ona vodiysidagi tajriba ham muhim. UNDPning “Youth for Social Harmony in the Fergana Valley” loyihasida yosh ayollar va yigitlarning teng ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish, ularning fuqarolik ishtirokini kuchaytirish, liderlik va muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan treninglar, yoshlar muloqot maydonchalari, innovatsion loyihalar va kichik grantlardan foydalanilgan [8][15]. Loyihada yosh ayollarning gender tengligi va imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan “Girls’ Voice Network” ham tashkil etilgan [8].

Xulosa

Mahalla va OTM hamkorligi yoshlarni gender tenglik tamoyillarini biladigan emas, balki ushbu tamoyillarni amaliy ijtimoiy faoliyatida qo‘llay oladigan faol fuqarolar sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Bunda talabalarning mahalla muammolarini o‘rganishi, ijtimoiy loyihalar ishlab chiqishi, yoshlar bilan muloqot qilishi va gender tenglikka oid tashabbuslarni amalga oshirishi muhim pedagogik vosita bo‘lib xizmat qiladi. Shu sababli mahalla-OTM hamkorligini tizimli tashkil etish yoshlarning huquqiy savodxonligi, gender madaniyati, liderlik qobiliyati va fuqarolik faolligini birgalikda rivojlantirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentabrdagi O‘RQ-562-son Qonuni. Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida.

2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2021-yil 28-maydagi SQ-297-IV-son qarori. 2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi.

3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2026-yil 26-maydagi KQ-346/1-V-son qarori. 2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasining maqsadli ko‘rsatkichlarini tasdiqlash to‘g‘risida.

4. O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentabrdagi O‘RQ-406-son Qonuni.

[14] UNFPA Uzbekistan. Engaging Men, Transforming Communities: UNFPA Supports Civil Society to Advance Gender Equality, 27.08.2026.

[15] UNDP Uzbekistan. Youth for Social Harmony in the Fergana Valley.

Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-116-son Farmoni, 24.06.2026. Mahalla boshqaruvini samarali tashkil etishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida.

6. UNFPA Uzbekistan. Towards Gender Equality and a Prosperous Society: Practical Approaches at the Mahalla, 2026.